O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI

OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI

FarDU. ILMIY XABARLAR-

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

4-2025

FILOLOGIYA

НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК. ФерГУ

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

Цян Вэй, Сунь Лисинь
Исследование перевода в интертекстуальной перспективе: на примере произведений А. Платонова 107
H.X.Bozorov
O‘zbek xalq ertaklarida stereotip ifodalar 119
N.A.Mamajonova
Topishmoqlar – olam manzarasining ikkilamchi nomi sifatida 127
В.А.Гиёсова
Классификация афазии с лингвистической точки зрения: обзор литературы 130
M.A.Abdujalilova
Abdulla qodiriyning “mehrobdan chayon” romanida uy-ro’zg’or buyumlariga oid so’zlarning pragmatik tahlili 134
N.A.Xoshimova
Gender nutqida diskursivlar tadqiqi 138

TILSHUNOSLIK

FarDU. Ilmiy xabarlar – Scientific journal of the Fergana State University

Volume 31 Issue 4, 2025-yil DOI: 10.56292/SJFSU/vol31_iss4/a101

UO'K: 811.512.133'373.45

O'ZBEK XALQ ERTAKLARIDA STEREOTIP IFODALAR

СТЕРЕОТИПНЫЕ ВЫРАЖЕНИЯ В УЗБЕКСКИХ НАРОДНЫХ СКАЗКАХ

STEREOTYPICAL EXPRESSIONS IN UZBEK FOLK TALES

Bozorov Hamid Xo'shmurodovich
Termiz davlat universiteti o'qituvchisi

Annotatsiya

Ushbu maqolada o'zbek xalq ertaklarida uchraydigan stereotipik ifodalarning mazmuni, vazifalari va badiiy ahamiyati tahlil qilindi. Stereotip ifodalar, jumlalar xalq og'zaki ijodining muhim tarkibiy qismi bo'lib, ular orqali xalqning ma'naviy dunyosi, axloqiy qarashlari va estetik didi namoyon bo'ladi. Maqolada bu ifodalarning obraz yaratish, xalqona tafakkurni aks ettirish va ertak matnining badiiy tuzilmasini mustahkamlashdagi o'rni yoritildi. Tadqiqot natijalari ushbu ifodalarning ertaklar mazmunini chuqurlashtirish va ularni xalqchil qilishdagi ahamiyatini ko'rsatildi.

Аннотация

В данной статье проанализированы содержание, функции и художественная значимость стереотипных выражений, встречающихся в узбекских народных сказках. Стереотипные выражения и предложения являются важной составной частью устного народного творчества, через которые проявляются духовный мир народа, его нравственные представления и эстетический вкус. В статье освещена роль этих выражений в создании образов, отражении народного мышления и укреплении художественной структуры сказочного текста. Результаты исследования показали значимость стереотипных выражений в углублении содержания сказок и придании им народного характера.

Abstract

This article analyzes the content, functions, and artistic significance of stereotypical expressions found in Uzbek folk tales. These expressions and phrases are an essential component of oral folk art, reflecting the spiritual world, moral values, and aesthetic tastes of the people. The article highlights the role of such expressions in character creation, representing traditional thinking, and strengthening the artistic structure of the tale's narrative. The research results demonstrate the importance of these expressions in deepening the content of folk tales and enhancing their folkloric character.

Kalit so'zlar: *ertak, stereotip, andoza, obraz, formulali stereotip, tuzilmali stereotip, stereotip voqealar zanjiri, zamon, makon va masofa.*

Ключевые слова: *сказка, стереотип, шаблон, образ, шаблонный стереотип, структурированный стереотип, стереотипная цепочка событий, время, пространство и расстояние.*

Key words: *fairy tale, stereotype, template, image, formulaic stereotype, structured stereotype, stereotype chain of events, time, space, and distance.*

KIRISH

Ma'lum bir xalqning o'ziga xosligini ko'rsatadigan muhim omillardan biri madaniyat hisoblanadi. Mamlakatimizning boy tarixini, uning betakror madaniyati va milliy qadriyatlarini keng targ'ib qilish [6, 47], aholi va yoshlarni ushbu omillarga sodiqlik ruhida tarbiyalash bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biridir. Bu orqali esa xalqimizning o'ziga xos stereotiplarini avloddan avlodga o'tishini ta'minlashga xizmat qiladi. Chunki stereotiplashtirish mexanizmi madaniyatni meros qilib olishning muhim tamoyillaridan biri hisoblanadi.

Bugungi globallashuv jarayonida madaniyatlar o'rtasidagi aralashuv har bir xalqning sotsiomadaniy qadriyatlari va an'analarini o'rganishga ehtiyoj sezmoqda. Sababiki "o'z madaniyatini o'rganish va anglash, eng avvalo, boshqa madaniyatlar bilan taqqoslash orqali amalga oshiriladi. Bu esa ma'lum bir xalqqa xos stereotiplarni shakllantirishga olib keladi. Stereotiplar esa madaniyatlararo muloqot jarayonida vosita sifatida ishtirok etadi" [9, 3].

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Ko'pchilik madaniyat va stereotip tushunchalarini aynan deb qabul qilganlar. N.Alefirenko O.N.Lagutaning "madaniyat stereotipi" va "madaniyat" tushunchalari o'rtasidagi farq haqidagi fikrini ma'qullaydi. O.N.Lagutaga ko'ra, stereotip subyektiv baholashni ifodalasa, madaniyat konsepsiyasi

obyektiv munosabatni ifodalaydi [1, 212]. Rus tadqiqotchisi R.Buxayeva stereotiplarning vazifasi haqida fikr bildirar ekan, "ular madaniyat bilan belgilanadi", "stereotiplar lingvistik resurslarni tejash vositasidir" [3, 12], deb ko'rsatadi.

"Inson xulq-atvorining tartibga solinishida etnik ong va madaniyatning shakllanishi asosida ham tug'ma, ham ijtimoiylashuv jarayonida orttirilgan omillar – madaniy stereotiplar yotadi. Bu stereotiplar insonning ijtimoiylashuvi jarayonida o'zlashtiriladi va inson o'zini ma'lum bir etnos, ma'lum bir madaniyat vakili deb his eta boshlaganidan ularni o'z hayotining ajralmas qismi sifatida anglaydi" [5, 17]. Bu esa stereotiplarning xalq ongidan o'rin olishida xalqqa xos an'ana va qadriyatlarning o'rni katta ekanligidan dalolat beradi.

R.Buxayevaning "stereotiplar lingvistik resurslarni tejash vositasidir" degan fikrlari o'rinli. Jumladan, xalqning o'tmishi haqida xabar beruvchi ertaklar tilida ham boshqa xalqlar uchun anglanishi qiyin bo'lgan tushunchalar bevosita stereotiplar orqali ko'rsatib berilishi samarali usullardan biri hisoblanadi. Shuni alohida qayd etish joizki, stereotiplar inson ongining tabiiy mulkidir. Bu mulkning eng qadimiy shakllari xalq ertaklarida o'z ifodasini topadi. Chunki har bir xalqning ertak an'analari mavjud bo'lib, unda xalq o'tmishi, qarashlari, madaniy va milliy qadriyatlari, shuningdek, ertak janrining an'anaviy o'ziga xos tabiati o'rin oladi.

NATIJA VA MUHOKAMA

Kvazistereotiplarning aksariyatini bartaraf etish uchun ham xalq ertaklari tilini o'rganish muhim. Ertaklar xayoliy to'qima janr bo'lishiga qaramay, unda, albatta, xalqning o'tmish haqiqati, orzu-intilishlari yashaydi. Bu esa xalq hayotining asl stereotiplarini anglash imkonini yaratadi. Prof. D.Baxronova stereotipni "madaniy qolip" [2, 16] deya ta'kidlaydi. D.Baxronovaning fikriga qo'shilgan holda, ertak janridagi ifodalarning qoliplashish jarayonlarini bevosita stereotip ifodalar misolida ko'rib chiqsak, maqsadga muvofiq bo'ladi.

Ertaklarda voqealar vaqti ko'pincha ko'rsatilgan dunyoning boshqa xalqlar ertaklarining boshlanishidan farqli o'laroq, ertaklarning boshlanishi, qoida tariqasida, tegishli joylar bilan ifodalangan noaniq xususiyatga ega bo'lgan voqealar joyini ko'rsatadi. Ushbu strukturaviy elementlarning ekspressivligi va xilma-xilligi, sirli va fantastik tabiati ularning maqsadi, alohida roli va funksiyalari bilan belgilanadi" [12, 24].

O'zbek xalq ertaklari – asrlar davomida og'zaki tarzda shakllangan, avloddan avlodga o'tgan ijod mahsuli bo'lib, u xalqning ijtimoiy hayoti, qadriyatlari, axloqiy me'zonlari va madaniyatini aks ettiradi. Bu jarayonda stereotip ifodalar o'ziga xos badiiy vosita sifatida muhim rol o'ynaydi.

Stereotip ifodalar – bu xalq og'zaki ijodida doimiy, andozalashtirilgan, takror-takror uchraydigan iboralar, gaplar yoki tasviriy birliklardir. Ular ertak matnining ma'lum joylarida doimiy qo'llanadigan ifodalardir. Ushbu ifodalarni eshitar yoki o'qir ekansiz qaysi xalq madaniyatiga xos ekanligini anglashingiz oson kechadi. Xususan, o'zbek xalq ertaklarida stereotip ifodalarning quyidagi ko'rinishlari ko'p uchraydi:

O‘zbek xalq ertaklarida formulali stereotip ifodalar. Bunday ifodalar og‘zaki an’anaga asoslangan, muayyan shakl va mazmunga ega bo‘lgan, ko‘p takrorlanuvchi, qoliplashgan jumla yoki tuzilmalar bo‘lib, ular ertaklarning kompozitsion tuzilishi, uslubiy yaxlitligi va eslab qolish uchun xizmat qiladi. Bunday ifodalar xalq ertaklari poetikasining ajralmas qismi hisoblanadi. Formulali stereotip ifodalarning o‘zi ham bir nechta bosqichlarni o‘z ichiga oladi. Bu bosqichlarni shartli ravishda quyidagicha tavsiflash mumkin:



O‘zbek xalq ertaklarida boshlanish formulalar, asosan, ertak boshidagi an’anaviy stereotip ifodalarga asoslanadi. Bunga *“Bir bor ekan, bir yo‘q ekan”, Bor ekan-da, yo‘q ekan”, “Och ekan-da, to‘q ekan”, “Qadim o‘tgan zamonda”* kabi jumlalarni misol qilishimiz mumkin. Bunday formulalar tinglovchini ertak dunyosiga olib kiradi, voqealarga tayyorlaydi.

O‘zbek xalq ertaklarida yakunlovchi formulalar. Bunday ifodalar ertak yakunida qat’iy barqaror shaklda qo‘llanadi. Masalan, *“Yoshini yashab, oshini oshab”, “Murod-maqsadlariga yetib”, “Qirq kecha-yu qirq kunduz to‘y berib”, “El-yurtga to‘y berib”*. Bunday stereotip ifodalar ertakni mantiqan tugatadi.

Takrorlanuvchi formulalar ertak voqea-hodisalari rivojida bir necha marta takrorlanadigan, ritmik va obrazli ifodalardir. Masalan: *“Zinhor-bazinhor bu yo‘ldan yurmay, ana u yo‘ldan yur, — debdi. Bola ketaverib-di,* ***yo‘l yuribdi, yo‘l yursa ham mo‘l yuribdi”*** [8, 17], *“Yalmog‘iz kampir: – Agar haq saloming bo‘lmaganda,* ***ikki yamlab, bir yutgan bo‘lardim.*** *Kimsan, nega bu erga kelding?”* Ushbu misollarda berilgan *“Yo‘l yuribdi, yo‘l yursa ham mo‘l yuribdi”, “Ikki yamlab, bir yutgan bo‘lardim”* kabi takrorlar aksariyat ertak matnlarida uchraydi hamda ertak matniga drammatik kuch bag‘ishlaydi, tinglovchini e’tibor qaratishga undaydi.

Jahon xalqlarining har biri o‘z ertaklarida poetik obraz va poetik makonlarni tavsiflashda ma’lum qoliplardan foydalanadilar. O‘zbek xalq ertaklari matnlarida ham mana shunday barqaror tavsifiy formulalar mavjud bo‘lib, obrazlar xarakterini tezda ochish va esda qoldirish imkonini beradi. Ertaklardagi *kambag‘al chol, oqila qiz, o‘gay ona, cho‘pon yigit kabi obrazlarni tavsiflashda qo‘llaniladigan otasi podsho, malikasifat, farishta kabi, sochi sumbul, sochi ipak, zar kokilli, erkak ayyorlar* kabi tavsiflar, *borsa kelmas, yetti yil yurib, yetti daryo oshib* kabi o‘rin-joyni ifodalovchi birliklar barqaror tavsifiy formulalarning asosini tashkil etadi.

Ertaklar tilidagi formulali ifodalarning asosiy vazifalarini quyidagicha ifodalashimiz mumkin:

Og‘zaki an’anada eslab qolishni osonlashtiradi, ya’ni rivoyatchi (ertakchi) uchun tayyor andoza vazifasini o‘taydi.

Uslubiy uyg‘unlik yaratadi. Ertakka xos badiiy kayfiyatni mustahkamlash vazifasini o‘taydi.

Qahramon va voqealarni ajratib ko‘rsatadi, ya’ni asosiy obrazlarni tezda tanitadi.

Tinglovchining e’tiborini jalb qiladi. Bunda takrorlar, ritmik tuzilma voqeaga e’tiborni oshiradi.

O‘zbek xalq ertaklaridagi formulali ifodalar — bu ertaklarning og‘zaki janr sifatida yashab qolishiga xizmat qilgan, xalq ijodining o‘ziga xos xazinasidir. Ular ertakning kompozitsion tuzilishini mustahkamlab, badiiy ifoda vositasi sifatida ham muhim ahamiyat kasb etadi.

O‘zbek xalq ertaklarida tuzilmali stereotip qoliplar. O‘zbek xalq ertaklarida tuzilmali (strukturaviy) qoliplar mavjud bo‘lib, ertakning mazmuni, shakli, kompozitsiyasi va obrazlar tizimini tashkil etishda muhim o‘ringa ega. Bu qoliplar xalq og‘zaki ijodining ko‘p asrlik tajribasi davomida shakllangan. Masalan, ertaklardagi ***“uchlik prinsipi”*** aksariyat ertaklarning tuzilmalariga bevosita ta’sir o‘tkazadi.



Uch sinov – *uchta yovuz kuch, uchta savol, uch dev.* Masalan, "Uch og'ayni botirlar" ertagidagi quyidagi matnga e'tibor qaratsak: *"Bir katta saroy, uning uch tomonida uchta eshik, to'g'ridagi eshik oldida posbon uxlagan, u sekingina – juda ehtiyotlik bilan posbonning qo'lidagi kalitni oldi"* [15, 160]. Ertak matnida bu uch eshik Kenja botir va akalari uchun o'z baxtini topish kaliti ekanligini oydinlashadi.

"Karvon yurib-yurib bir joyga kelibdi. Bu joyda uch yo'l bor ekan. Biri — "borsa kelmas", biri – "borsa xatar", yana biri – "borsa kelar" ekan. Karvonboshi qaysi yo'lga yurishni bilmay, o'ylab qolibdi" [7, 37]. Ushbu misolda ertaklar matnida ko'p qo'llanuvchi uch sinov motivi tuzilmalarining ifodasidir.

Uch aka-uka. Bunda ko'p holatlarda eng kichigi muvaffaqiyatga erishadi. Masalan: "*Eng oxiri kenja botir o'zini rostlab, dadillik bilan arqonni beliga mahkam bog'labdi. – Sizlar, arqonni mahkam ushlab turinglar, – deb g'orga tushib ketibdi*" [15, 195]. "Semurg'" nomli o'zbek xalq ertagidan olingan ushbu ertakda ertak tuzilmasidagi "uchlik prinsipi"dagi tamoyilga, ya'ni uch aka-ukadan kenjasining yaxshi tarbiyasi va jasoratini ifodalaganligini ko'rishimiz mumkin.

Qiz yig'labdi: "Bo'lmasa uch kunga javob bering, qizlar bilan bog'da sayr etib o'ynab olay, keyin sizning aytganingiz bo'lsin", debdi. Ushbu matnda ertak qahramonining uch kunga muhlat olishi va shu kunlar ichida ozodlik uchun uch bora urinib ko'rishi bayon etilgan. Bu esa "uchlik prinsipi"ning ***uch bor urinish va oxirida muvaffaqiyat qozonish*** tuzilmasini yuzaga chiqaradi.

Qahramonlar tasvirining stereotipik ta'rifi. Stereotipik tasvir – bu obrazning o'ziga xos xususiyatlarini doimiy shaklda, an'anaviy belgilar bilan tasvirlash usuli. Ular ertaklar tilida avloddan avlodga o'tib, barqarorlashib ketgan. Har bir qahramon turi uchun muayyan sifatlar, tashqi ko'rinish, xatti-harakat va rol belgilangan bo'ladi. Ertaklarda uchraydigan asosiy obrazlarning qat'iy qoliplarda, ya'ni doimiy, barqaror belgilar asosida tasvirlanishi ertak qahramonlarining stereotiplashishini ifodalaydi. Ushbu stereotipik tasvirlar xalq og'zaki ijodining asosiy xususiyatlaridan biri bo'lib, ertaklarning didaktik va estetik vazifalarini bajarishda muhim o'rin tutadi. O'zbek xalq ertaklaridagi stereotiplashgan qahramonlarni, asosan, 3 guruhga ajratish mumkin:

O'zbek xalq ertaklaridagi asosiy stereotipik qahramonlarni *ijobiy, salbiy, ijobiy ko'makchi* va *salbiy yordamchi ko'rinishidagi obrazlar* guruhiga ajratish mumkin.

Ijobiy qahramonlar. Misol: "Ziyod Botir" ertagidagi Ziyod, "Zumrad va Qimmat" ertagidagi Zumrad kabilar bir-biriga yaqin stereotipik belgilarga ega bo'ladi.



Salbiy qahramonlar. Deyarli barcha ertaklarda bunday obrazlar mavjud bo'lib, aksariyat hollarda *dev, jodugar, o'gay ona, yovuz podsho* ko'rinishida namoyon bo'ladi.



Ushbu qahramonlarning tasvirdagi doimiy elementlari: dev – katta gavdali, ko'zidan olov chiqadi; jodugar – iflos, tishsiz, qora kiyimda, sehr bilan odamni aldaydi.

Yordamchi obrazlar – kampir, mo'ysafid chol ko'rinishidagi antroonim, zoonim, ornitonim, teonim yoki mifonim ko'rinishida paydo bo'ladi. Bunday obrazlarning asosiy stereotipik belgilari quyidagicha bo'ladi:

Ertak qahramoniga og'ir vaqtda yordam beradi;

Odatda, donishmand, yoshi katta bo'ladi (Xizr yoki "Zumrad va Qimmat" ertagidagi kampir)

Hayvonlar: Yo'l ko'rsatadi, qahramonni manziliga yetkazadi yoki xavfdan ogoh etadi.

Bu tipdagi qahramonlarning asosiy vazifasi yaxshilik g'oyasini kuchaytirish, adolat tomon yo'naltirishdan iborat.

Yordamchi ko'rinishidagi salbiy obrazlar. Bunday qahramonlar yoki narsa-buyumlar, asosan, hayvon va shaxs ko'rinishida namoyon bo'lib, hasadgo'y, boylik va taxt uchun har narsaga tayyor, g'araz niyatli, xiyonatkor ko'rinishida bo'ladi.

Barcha stereotiplar qo'llab-quvvatlovchi konsepsiya, ya'ni ideologema atrofida nutqda guruhlash va aktuallashtirishga yordam beradi. Ertak matnlarida mavjud obrazlarni guruhlash bunga yaqqol misol bo'ladi. Ertaklarda qahramonlar, ko'pincha, bir xil shaklda tavsiflanadi. Masalan: ijobiy qahramon *"aqlli, halol, mehnatkash, sabrli"*. Salbiy qahramon *"hiylakor, dangasa, badjahl"*.

Ertak qahramonlarining ***tashqi ko'rinishdagi stereotiplar*** ham o'zbek xalqi mentalitetida o'ziga xos tarzda akslanadi. Jumladan:

Go'zal qiz: uzun sochli, oq yuzli, nozik gavdali, qora qoshli.

Dev: yirik gavdali, ayrim hollarda ko'p boshli, qo'rqinchli yuzli (o'zbek ertaklarida dev bir muncha arxaik qiyofada, aniqrog'i, yirtqich hayvon – ajdarho, ilon qiyofalarida gavdalangan [10, 16], bugungi kunda bu ko'rinish xalq tasavvurida mavjud emas) ko'rinishida namoyon bo'ladi. "Xalq og'zaki ijodining ayrim janrlarida devlar ot, ho'kiz, sher, yo'lbars, burgut tuya ko'rinishlarida ham uchraydi. Bu totemistik qarashlar va hayvonlar kulti bilan bog'liq bo'lib, obrazning uzoq davom etgan madaniylashish jarayonidir" [10, 16]. Devlarning bu ko'rinishdagi qiyofa shakllari o'zbek xalq ertaklarida kamdan kam hollarda uchraydi.

Sehrgar kampir (ijobiy obraz): kulrang sochli, egik belli, yorug' yuzli.

Stereotipik raqamlar va sonlar. Ko'plab ertaklarda 3, 7, 40 sonlari takrorlanadi va ramziy ma'no kasb etadi. "O'zbek xalq og'zaki badiiy ijodiyoti va marosimlarida alohida e'tibor beriladigan 3, 4, 5, 7, 9 va 40 sonlari ajdodlarimizning qadimiy tasavvurlari asosida tilsimlashtirilgan miqdoriy belgilardir. Bu sonlarga qadim zamonlardan beri e'tiqod qo'yib kelingani bois, xalq badiiy tafakkuri, dunyoqarashi va madaniy qadriyatlarining turli ko'rinishlariga singib kelgan" [4, 28].

Zamon, makon va masofaning stereotipik ifodasi. "Xalq ertaklarida ifodalanayotgan voqelik mezonlarini aniqlash, zamon bilan makon munosabatining xalq ma'naviy olamini, madaniy ko'rsatkichlarini, mafkuraviy-axloqiy hamda badiiy-estetik qarashlarini tadqiq qilish imkonini beradi" [14, 26]. Ayniqsa, masofaning stereotipik ifodasi davr va aholi nutqining o'ziga xos jihatlarini ochib berishda muhim ahamiyat kasb etadi. Ertaklardagi zamon va makonning o'ziga xos tabiatini tadqiq etgan K.Qodirov ertaklarda epik zamonning o'rni kattaligini alohida ta'kidlaydi va quyidagilarni qayd etib o'tadi: "Ertakdagi epik zamon bilan ertak aytilayotgan real vaqtni bir-biridan ajratib turadigan o'ziga xos belgilar mavjud. Ularni qayd etish maqsadga muvofiq bo'ladi. Epik zamon doimo o'tgan zamon kategoriyalari, ya'ni uzoq o'tgan zamon va yaqin o'tgan zamonni qamrab oladi va ular voqealarning o'sha o'tmishda bo'lganligini ta'kidlaydilar. Real vaqt esa ertakchi va ertak tinglovchilar ishtirok etayotgan vaqtni anglatadi" [12, 24]. Shu ma'noda, o'zbek ertaklarida zamon aniq bir tarixiy davr bilan emas, balki noaniq, abadiy va ramziy vaqt orqali beriladi. Ertaklarda ro'y beradigan vaqt yoki zamon stereotiplarini quyidagicha ifodalash mumkin:

"Bir bor ekan, bir yo'q ekan" jumlasi voqea-hodisaning qadim zamonlarda, muayyan tarixdan tashqarida kechganini bildiradi.

"Bir borib, bir kelguncha...", "yetti yil izlabdi", "qirq kun yo'l yuribdi" kabi iboralar zamonni faqat miqdoriy emas, balki sabr-toqat, sinov va yetilish ramzi sifatida ishlatiladi.

Vaqt ertaklarda siklik va cheksizlik xarakteriga ega. Bu xalq tafakkurida vaqtning aylanma (siklik) tabiatini aks ettiradi.

Makon stereotiplari ertak matnlarida real areallarni emas, balki fantastik, ramziy yoki arxetipik joylarni ifodalaydi. Masalan:

"O'sha-o'sha yurtlarda", "Uzoq o'lkalarda (mamlakatda)", "Devlar mamlakatida" kabi iboralar joyning aniq hududini emas, balki noaniq makonni ifodalaydi va ertakni real hayotdan uzib, fantastik fazoga olib kiradi.

Ertaklaridagi *"Yer tagida" ("Quyish yerning pahlavoni" ertagida), Bog'i Eram, Ko'hi Qof* kabi tog'lar makonning sathini emas, balki g'oyaviy-falsafiy, ramziy xarakterga ega bo'ladi. Bunday makonlar aksariyat hollarda qarama-qarshilik asosida quriladi.

Masofaviy stereotiplar o'zbek xalq ertaklarida vaqt va makon bilan bog'liq holda sabr-toqat, jasorat, maqsad yo'lida sobit qadamlik timsoli sifatida namoyon bo'ladi. Jumladan, *"Qirq kunlik yo'l", Yetti tog'dan oshib", "Yo'l yurib, mo'l yurib"* kabi iboralar orqali masofa miqdori emas, balki tajriba, ruhiy kamolot me'zonlari sifatida talqin qilinadi. Ko'pincha, masofa ertak qahramonining sinov yo'li, uning ruhiy va jismoniy tayyorgarligini sinovdan o'tkazish bosqichi tarzida aks etadi. Demakki, ertaklar matnlarida masofa faqatgina fizik emas, balki ruhiy masofani ham anglatib keladi. Qisqa qilib aytganda, o'zbek xalq ertaklari matnlarida ifodalangan zamon, makon va masofa stereotiplari ertakni real hayotdan ajratib, g'aroyiblik, ramziylik va universallik fazosiga ko'chiradi.

Ertaklar tuzilmasi aksariyat hollarda stereotip voqealar ketma-ketligiga asoslanadi. Shu ma'noda, ertaklarning mazmuni quyidagi stereotipik voqealar zanjirida quriladi:

1. Kirish. Qahramon tanishtiriladi.
2. Muammo (sinov) paydo bo'ladi.
3. Qahramon yo'lga chiqadi.

4. Sehrli yordamchi ko'rinadi.
5. Dushmanga qarshi kurashadi.
6. G'alaba qozonadi va mukofotga ega bo'ladi.
7. Yakunda yaxshi hayot kechiradi.

Ushbu stereotiplarni "Susambil" ertagi misolida quyidagicha ifodalash mumkin:

T/R	Mazmuniy voqealar zanjiri	Voqealar rivoji	Izoh
1	Kirish	Qahramonlar tanishtiriladi	Eshak, ho'kiz, xo'roz, kalamushlar, arilar
2	Muammo (sinov) paydo bo'ladi	Xo'jayinlarining qiynoqlari, ochlik	Uydan chiqib ketadi, ochlikdan
3	Qahramonlar yo'lga chiqadi	Eshakning onasi tomonidan aytilgan farovon yurt tomon yo'lga chiqishadi	Susambil degan yurtda yaxshi hayot kechirishni maqsad qiladi
4	Sehrli yordamchi ko'rinadi	Sehrli kuch sifatida hayvonlarning birligi tavsiflanadi	O'z maqsadlariga erishadi
5	Dushmanga qarshi kurashadi	Bo'rilar paydo bo'ladi	Bo'rilarga qarshi kurashadi
6	G'alaba qozonadi va mukofotga ega bo'ladi	Bo'rilarni Susambildan haydashadi	Birlik va birodarlik natijasida ga'alabaga erishadi
7	Yakunda yaxshi hayot kechiradi	Susambilda tinch va osoyishta yashashadi	O'z maqsadlari yo'lida sinovlardan o'tib, farovon hayot kechirishadi

O'zbek xalq ertaklarida mavjud stereotipik ifodalarning asosiy maqsad va vazifalarini quyidagicha ifodalashimiz mumkin:

T/R	Maqsadi	Funksiyasi
1	Matnni yodda saqlashni osonlashtirish	Stereotiplar yordamida ertaklar avloddan avlodga yodda saqlab, og'zaki tarzda yetkazish
2	Tinglovchini tayyorlash va e'tiborini jamlash	Boshlang'ich va yakun stereotiplari tinglovchining diqqatini jalb qiladi
3	Folklor janri an'analariga sodiqlikni ta'minlash	Stereotiplar og'zaki ijodga xos bo'lgan an'anani saqlash
4	Estetik va ritmik ta'sir kuchini oshirish	Qaytariluvchi ifodalar orqali ertaklar musiqiylik va ritmga ega bo'ladi bo'lishini ta'minlash
5	Ma'naviy-axloqiy g'oyalarni mustahkamlash	Stereotipik obrazlar orqali xalq e'tiqodlari, axloqiy qadriyatlar mustahkamlanadi

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, o'zbek xalq ertaklaridagi stereotip ifodalar, jumlalar xalq og'zaki ijodining o'ziga xos badiiy vositasi bo'lib, ular orqali milliy mentalitet, ijtimoiy qarashlar va axloqiy qadriyatlar avloddan avlodga yetkaziladi. Ushbu ifodalar ertak qahramonlarining obraz darajasini aniqlashtirish, voqealarning mazmunini chuqurlashtirish, tinglovchi va o'quvchida barqaror axloqiy tasavvur shakllantirishda muhim vosita bo'lib xizmat qiladi. Shuningdek, stereotipik ifodalar o'zbek xalq ertaklarining didaktik va estetik mohiyatini boyitib, ularni xalqchil, oson, esda qolarli va ta'sirchan qilishini ta'minlaydi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Алефиренко Н.Ф. Лингвокультурология. Ценностно-смысловое пространство языка. Учебное пособие. М.: Флинта, Наука, 2010. – 224 с.
2. Бахронова Д.К. Олам манзарасияинг миллий-маданий ва лингвокогнитив категорияланиши. – Тошкент: Turon iqbol, 2021. – 257 б.

3. Бухаева Р. Этнокультурные стереотипы речевого общения (на материале бурятского языка). Автореф. дисс... док. филол. наук. – Москва, 2015. – 55 с.

4. Жўраев М., Расулова З. Миф, маросим ва эртак. – Тошкент: Mumtoz so'z, 2014. – 308 б.

5. Маслова В. Введение в лингвокультурологию: Учебное пособие. – Москва: Издательство Наследие, 1997. – 207 с.

6. Мирзиёев Ш. Танқидий таҳлил, қатъий тартиб интизом ва шахсий жавобгарлик ҳар бир раҳбар фаолиятининг кундалик қоидаси бўлиши керак. – Тошкент: Ўзбекистон, 2017. – 104 б.

7. Ойжамол. Ҳаётий эртаклар. – Тошкент: F.Ғулом, 1969. – 173 б.

8. Олтин бешик. Ўзбек халқ эртаклари. – Тошкент: F.Ғулом, 1985. – 256 б.

9. Пак Е. Динамика этнокультурных стереотипов в коммуникации: Россия и Испания. XX-XXI век. Автореф.дисс. ...канд.филол.наук. – Москва, 2009. – 29 с.

10. Эшонқулов Ж. Ўзбек фолклорида дев образининг мифологик асослари ва бадиий талқини. Филол.фан. номз...дисс. – Тошкент, 1996. – 27 б.

11. Ян Кэ. Лингвостилический и лингвострановедческий анализ русских народных волшебных сказок. Дисс. ...канд. филол. наук. – Казань, 1995. – 160 с.

12. Қодиров К.Н. Ўзбек сеҳрли эртакларида замон ва макон талқини. Филол.фан. номз...дисс. – Тошкент, 2004. – 148 б.

13. Bozorov H. O'zbek xalq ertaklarining lingvomadaniy tadqiqi. Filol.fan.b.fals.dok. ...diss. – Termiz, 2023. – 164 b.

14. Uch og'ayni botirlar. O'zbek xalq ertaklari. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2017. – 304 b.

https://orcid.org/0009-0007-3893-6129